

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

KOSIMOV JAMSHID NORTOJIYEVICH

**XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING INVESTITSIYA
LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH
("O‘zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati misolida)**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahar – 2024-yil

UO‘K: 336.761.6-048.42(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Kosimov Jamshid Nortojiyevich

Хо‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish (“O‘zkimyosanoat” AJ misolida)..... 3

Косимов Жамшид Нортожиевич

Совершенствование финансирования инвестиционных проектов хозяйствующих субъектов (на примере АО “Узкимёсаноат”)..... 27

Kosimov Jamshid Nortojiyevich

Improving the financing of investment projects of economic subjects (case-study of “Uzkimyosanoat” JSC)..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 58

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

KOSIMOV JAMSHID NORTOJIYEVICH

**XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING INVESTITSIYA
LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH
(“O‘zkiyosanoat” aksiyadorlik jamiyati misolida)**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahar – 2024-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi
Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3259 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tiu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Shernayev Akbar Aqmirzayevich**
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: **Raxmonov Dilshodjon Alidjonovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xujamuradov Asqar Jalolovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Tashkent international university huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «__» _____ kuni soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:. 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7 uy. Tel.:(+ 998 95) 131-55-55; e-mail:info@tiu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent xalqaro universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7 uy. Tel.:(+ 998 95) 131-55-55; e-mail:info@tiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil «__» _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.X. Jumayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyoti fanlari doktori, professor

A.T. Absalamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

D.A. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyoti fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda pandemiyaning soʻnggi yillarda toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarning global oqimi jiddiy zarar koʻrdi. 2020-2023 yillarda xorijiy investitsiyalarning global oqimi 3/1 qismga pasayib, 1 trillion dollarga tushdi, bu avvalgi, global moliyaviy inqirozdan keyin erishilgan eng past nuqtadan ancha kam¹. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish va yangi infratuzilmaga oid investitsiya loyihalari ayniqsa katta zarar koʻrdi. Bu katta muammo, chunki xalqaro investitsion oqimlar dunyoning qashshoq mintaqalarida barqaror rivojlanish uchun juda muhimdir. Pandemiya barqaror va inklyuziv tiklanishni qoʻllab-quvvatlash uchun investitsiyalarni koʻpaytirish endi global siyosatning ustuvor yoʻnalishi hisoblanadi. Bu infratuzilma va energiya almashinuviga, ishlab chiqarishga va ijtimoiy sohalarga investitsiya kiritishni ragʻbatlantirishni nazarda tutadi.

Vaholanki, hozirgi kunda jahonning rivojlanayotgan mamlakatlarida xoʻjalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish, xususan, ularning yangi moliyalashtirish manbalaridan foydalanish darajasini oshirish, davlatlarning xoʻjalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyotiga innovatsion usullarni joriy etishga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mazkur mamlakatlar amaliyotida inflyatsiya darajasining yuqoriligi hamda investitsion muhit jozibadorligining nisbatan pastligi, jahon moliyasi globallasuvi jarayoni va dunyo iqtisodiyoti integratsiyalashayotgan bir paytda moliyaviy resurslar shakli sifatida korxonalariga qarz kapitalini jalb qilishdek usulga yangicha shakl va metodlar qoʻllanilishi hamda moliyalashtirish manbalarining barqaror emasligi oqibatida xoʻjalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyotiga taʼsir etayotgan salbiy jihatlarni bartaraf etish ilmiy tadqiqotning asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlib hisoblanadi.

Bunday sharoitda mamlakatimizda olib borilayotgan faol investitsiya siyosati mamlakat milliy iqtisodiyotini istiqboldagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim moliyaviy omili boʻlib xizmat qiladi. Respublikaning sanoat va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga yuqori texnologiyalarni keng joriy etish, toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish orqali hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, eksportni rivojlantirish, aholi bandligini taʼminlash va kambagʻallikni qisqartirish, shuningdek, investitsiyalarni tizimli rejalashtirish va investitsiya loyihalarini samarali boshqarish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga moʻljallangan Investitsiya dasturida: markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni oʻzlashtirishning yigʻma maqsadli koʻrsatkichlari 2 025 200 mlrd. soʻmga yetkazishni, shu jumladan 714 278 mlrd. soʻm miqdoridagi toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar va kreditlar oʻzlashtirilishining manzilli dasturi koʻrsatilgan.² Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday keng koʻlamli

¹ Qarang: www.unctad.org . World Investment Report 2024

² 30.12.2021 yildagi “Oʻzbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga moʻljallangan Investitsiya dasturini

islohotlarni va faol investitsiya siyosati samaradorligini yanada oshirish, avvalo, investitsiya faoliyatini rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida mukammal tizimli moliyalashtirish mexanizmini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida milliy iqtisodiyotimizda xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni yanada takomillashtirish tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda PQ-72-son "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi Prezident qarori, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida to'g'risida"gi, 2018 yil 29 iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi, 2018 yil 21 sentyabrda PF-5544-son "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019 yil 8 yanvardagi PF-5614-son "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-son "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi Investitsion faoliyatni moliyalashtirish usullarning nazariy-ilmiy, uslubiy va amaliy muammolari R.Stobaugh, R.Stoun, N.Abikayev, V.D.Andrianov, B.C.Bard, S.N.Buzulukov, I.N.Drogobitskiy, S.Ye.Shepetova, A.B.Bel'skiy, N.Berzon, Yu.I.Vernadskiy, O.V.Tereshenko, V.V.Bocharov, E.I.Krilov, V.M.Vlasova, M.G.Yegorova, D.A.Lavrik, M.M.Prusak, N.M.Sabitova, V.Savelev, A.P. Lure, L.V. Kantorovich, T.S. Xachaturov, D.S. Lvov kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan³.

tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ-72-sonli Prezident qarori

³Stobaugh R. How to Analyze Foreign Investment Climates. -Harvard Business Review, September October 1969.- p.189. Stoun R. Social Account at the Regional Level: a Survey. In: Regional Economic Planning. Techniques of Analysis for Less Developed Areas / Ed. By W.Isard and J.Camberland. OECD. Paris, 1961; Абыкаев Н. Инвестиционный потенциал и экономический рост (методологический аспект) // Экономист. 2000. - № 6. - С. 58-66.; Андрианов В.Д. Россия: экономический и инвестиционный потенциал. М.: ОАО «Издательство «Экономика», 1999. - 662 с.; Бард В.С., Бузулуков С.Н., Дрогобыцкий И.Н., Щепетова С.Е. Инвестиционный потенциал Российской экономики. М.: Издательство «Экзамен», 2003. - 320 с.; Бельский А.В. Анализ инвестиционной привлекательности регионов // Сборник научных трудов: Региональная экономика проблемы и перспективы. -М., 2003.-320 с.; 16. Берзон Н. Формирование

Shuni alohida ta’kidlash joizki, hozirgi sharoitda mamlakatda olib borilayotgan faol investitsiya siyosatining istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ko‘p jihatdan uni moliyashtirishning ilg‘or xorijiy tajribalarga asoslangan holda yanada takomillashtirish bo‘yicha tizimli qarorlar qabul qilishga bog‘liqdir.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar D.G.G‘ozibekov, N.G‘.Karimov, N.X.Jumayev, F.O‘.Dodiyeu, N.R.Qo‘ziyeva, N.X.Xaydarov, Sh.Mustafaqulov, R.B.Saidov, E.I.Nosirov, O‘.A.Haydarov va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan ⁴.

Shunga asoslangan holda ushbu tadqiqot ishida xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tizimi ishlab chiqildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta’minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

инвестиционного климата в экономике // Вопросы экономики. 2001. - № 7. - С. 104-114.; Вернадский Ю.И., Терещенко О.В. Интеграция финансового и промышленного капитала как фактор роста инвестиционного потенциала реального сектора экономики // Регион: экономика и социология. 2002. - № 1. - с. 97-102.; Бочаров В.В. Финансово-кредитные методы регулирования рынка инвестиций. М.: Финансы и статистика, 1993 – 158 с.; Крылов Э.И., Власова В.М., Егорова М.Г. и др. Анализ финансового состояния и инвестиционной привлекательности предприятия. -М.: Финансы и статистика, 2003. 192 с.; Лаврик Д.А. Диагностика региона основа для эффективного размещения инвестиций // Сборник научных трудов: Управление экономикой: методы, модели, технологии. - Уфа: УГАТУ, 2001. - 246 с.; Прусак М.М. Стратегия региона: инвестиции в экономику // Финансы. 2001. - № 1. - С. 6-8.; Сабитова Н.М. О понятии финансового потенциала региона и методология его оценки // Финансы. 2003. - № 2. - С. 63-65.; Савельев В. Инвестиционный потенциал регионов: региональный прогноз // Обозреватель Observer. - 2003. - № 3. - С. 83-89. Лурье А.Л. Методы сопоставления эксплуатационных расходов и капиталовложений при оценке технических мероприятий. М., Трансжелдориздат, 1948 г.; Канторович Л.В. «Экономический расчет наилучшего использования ресурсов» -М., Издательство Академии наук СССР, 1959 г., 348 с.; Хачатуров Т.С. Эффективность капитальных вложений - М. Экономика 1979. - 335 с.; Львов Д. С. Эффективное управление техническим развитием. - М.: Экономика, 1990. - 255 с

⁴ Ғозибеков Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш муаммолари - Т.:2002. и.ф.д. дисс. автореф. 11-14 б. Каримов Н.Ғ. Иқтисодий интеграциялашув шароитида инвестиция фаолиятини молиялаштиришнинг бозор механизмларини жорий этиш масалалари. – Т.: Фан ва технология, 2007. – 240 б., Жумаев Н.Х. Камабағаллик: Даромад тенгсизлиги ми ёки таълим олишга эътиборсизлик. Мақола. -Халқ сўзи газетаси, 2020 йил 25 июнь. Додиев Ф.Ў. Инвестицион фаолиятини молиявий рағбатлантириш: иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. –Тошкент. 1998.-22 б.; Кузиева Н.Р. Хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар фаолиятини рағбатлантиришнинг молия-кредит механизмини такомиллаштириш йўналишлари. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2008; Ҳайдаров Н.Х. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари (хорижий инвестицияли корхоналар мисолида): иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Тошкент. 2003.-22 б.; Мустафақулов Ш.И. Ўзбекистонда инвестицион муҳит жозибadorлигини оширишнинг илмий-усlubий асосларини такомиллаштириш. и.ф.д. (DSc). дисс. автореферати. Т., 2017.; Саидов Р.Б. Ўзбекистон Республикаси уй хўжаликларида инвестициялашни такомиллаштириш. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент. 2011.-18 б.; Ғозибеков Д.Ғ., Носиров Э.И. Ўзбекистон иқтисодийётига хорижий инвестицияларни жалб қилиш. Рисола. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 92 б. Ҳайдаров Ў.А. Миллий иқтисодийёт доирасида инвестиция фаолиятини молиялаштириш механизмини такомиллаштириш йўллари.

Tadqiqotning maqsadi xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning zarurligi va funksional elementlarini tadqiq qilish va tegishli ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish usullarning normativ-huquqiy asoslarini tadqiq etish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish usullarining manbalarini shakllantirish yo‘llari o‘rganish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga ta‘sir etuvchi omillar ta‘sirini ekonometrik tahlil qilish va shu asosida baho berish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish va O‘zbekiston amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida “O‘z kimyosanoat” AJ ning investitsiya loyihalari va uning moliyaviy ta‘minoti maydonga chiqadi.

Tadqiqot predmetini xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot vazifasini hal etishda ilmiy abstraksional, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, korrelyatsion va regression tahlil hamda iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sharoiti og‘ir bo‘lgan hududlarda yangi tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlariga aylanmadan olinadigan soliqni 1 foiz stavkada qo‘llash orqali respublika tuman va shaharlarining 4 va 5-toifalardagi investitsiya loyihalariga mablag‘larni jalb etishni ko‘paytirishga oid taklif etilgan;

yuqori texnologiyali tadbirkorlik loyihalari-startaplarni birgalikda moliyalashtirish uchun tashkil qilinadigan venchur fondlarni muayyan muddatga qadar barcha turdagi soliqlardan (ijtimoiy soliqdan tashqari) ozod qilish taklifi ishlab chiqilgan.

kimyo sanoatida qulay bozor sharoitlarini yaratish uchun “O‘z kimyosanoat” AJning kimyo sohasidagi regulatorlik vakolatini va kimyo sanoati korxonalaridagi aksiya paketlarini davlat boshqaruv organlariga o‘tkazish taklifi asoslantirilgan.

kimyo tarmog‘ini xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda moliyalashtirish jarayoniga ekologik, ijtimoiy va korporativ moliyaviy menejment metodlari (ESG)ni joriy qilish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda markazlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish mexanizmi bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

hududlarda past rentabellikda ishlayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga muqobil moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan;

O‘zbekiston Respublikasining investitsion jozibadorligini ommalashtirish maqsadida xorijiy investorlar uchun virtual axborot maydonini shakllantirish taklifi ishlab chiqilgan;

xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda investitsiyalarni tarmoqlar kesimida taqsimlashda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega loyihalarga ustuvorlik berilishi bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

amaldagi kredit resurslari foiz stavkalari sharoitida ishlab chiqarishga yo‘naltiriladigan banklar investitsiya kreditlari samarasiz ekanligi isbotlangan va foiz stavkalarini tushirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan;

mamlakatdagi investitsion faollikka salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar qatorida zarar ko‘rib ishlayotgan past rentabelli sanoat korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirish va tugatish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining tahlil jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy ma‘lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali istiqbolda makroiqtisodiy barqarorlik va milliy iqtisodiyot doirasida raqobatbardoshligini oshirishda nazariy-metodologik va uslubiy jihatdan takomillashtirish, ulardan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar, ilmiy fikr-mulohazalar va nazariy g‘oyalardan sohani samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda, ushbu soha xodimlarining malakasini oshirish hamda oliy o‘quv yurtlarining “Investitsiya va innovatsiya”, “Investitsiya”, “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish”, “Kapital investitsiya tahlili” kabi fanlari o‘quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy etish.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsion loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy izlanishlar asosida:

Sharoiti og'ir bo'lgan hududlarda yangi tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlariga aylanmadan olinadigan soliqni 1 foiz stavkada qo'llash orqali respublika tuman va shaharlarining 4 va 5-toifalardagi investitsiya loyihalariga mablag'larni jalb etishni ko'paytirishga oid taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni 2-ilovasining 129-bandida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 17 fevraldagi 08/41-2-3718-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2022 yilda ushbu hududlarda oldingi yilga nisbatan yangidan ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni 1,27 martaga, yangi investitsiya loyihalari soni 1,34 martaga, o'zlashtirilgan investitsiyalar summasi 1,42 martaga oshishiga, soliq imtiyozi hisobiga tadbirkorlar ixtiyorida 79,7 mlrd.so'm mablag' qolishiga erishilgan.

Yuqori texnologiyali tadbirkorlik loyihalari-startaplarni birgalikda moliyalashtirish uchun tashkil qilinadigan venchur fondlarni muayyan muddatga qadar barcha turdagi soliqlardan (ijtimoiy soliqdan tashqari) ozod qilish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22-yanvardagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5308-sonli Farmonining 8-bandida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 17 fevraldagi 08/41-2-3718-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida, 2019-2022-yillarda mamlakatimizda yuqori texnologiyali innovatsion loyihalarni birgalikda moliyalashtirish uchun tashkil qilingan 4 ta venchur fondlarning ixtiyorida 49,1 mlrd.so'mlik mablag'lar qoldirildi va ushbu mablag'larning investitsion maqsadlarda qayta taqsimlanishiga erishildi.

Kimyo sanoatida qulay bozor sharoitlarini yaratish uchun "O'zkiyosanoat" AJning kimyo sohasidagi regulyatorlik vakolatini va kimyo sanoati korxonalaridagi aksiya paketlarini davlat boshqaruv organlariga o'tkazishga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023 yil 12-oktyabrdagi PF-169-son Farmonining 11-bandini ishlab chiqishda foydalanildi. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 17 fevraldagi 08/41-2-3718-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida, kimyo sanoati tarmog'ida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, mavjud tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash va talab yuqori bo'lgan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish rag'batlantirilishiga erishiladi.

Kimyo tarmog'ini xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda moliyalashtirish jarayoniga ekologik, ijtimoiy va korporativ moliyaviy menejment metodlari (ESG)ni joriy qilishga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyatida mavjud quvvatlardan samarali foydalanish hamda ichki va tashqi bozorda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni

ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023 yil 27-iyuldagi PQ-242-son Qarorining 2-bandida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 17 fevraldagi 08/41-2-3718-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida. "Farg'onazot" AJning ustav kapitalida 99,02 foiz aksiyalar paketi 130 mln. AQSh dollari va 107 mlrd.so'mga sotib olish hamda investitsiya kiritish sharti bilan "Indorama SorporationPte Ltd" kompaniyasiga sotildi.

Ilmiy tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 6 ta ilmiy - amaliy konferensiyalarda, ulardan 2 tasi xalqaro tadbirlarda ma'ruzalar sifatida taqdim etildi.

Tadqiqot natijalarini nashr etish. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12-ta ilmiy ish, shu jumladan: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan jurnallarda 4 ta maqola, shu jumladan xorijiy mamlakatlarda 1 ta maqola va 3 ta maqola respublika jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, to'qqizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 130 betdan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish usullarining nazariy-xuquqiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish usullarining zarurligi va funksional elementlarining nazariy asoslari, O'zbekiston Respublikasida xo'jalik subyektlari investitsiya loyihalarini moliyalashtirish usullarining xuquqiy-me'yoriy asoslari, xo'jalik subyektlarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish usullarining manbalarini shakllantirish yo'llari kabi masalalar yoritilgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish deganda – respublikaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilish, korxonalarni zamonaviy jihozlar asosida modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash, yuqori sifatli xalq iste'moli mahsulotlarini ishlab chiqarish, respublikaning eksport salohiyatini kengaytirish, tashqi iqtisodiy faoliyatga xizmat qilishlarga yo'naltirilgan yirik sarmoyaviy loyihalar va dasturlarni moliyalashtirishni nazarda tutadi.

So'nggi yillarda xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning iqtisodiyot taraqqiyotidagi, uning ustuvor tarmoqlarini

rivojlantirishdagi roli nihoyatda dolzarbligidan kelib chiqib, mamlakatimizda xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni rivojlantirishning huquqiy va institutsional asoslari takomillashtirilmogda. Xususan, bugungi kunda tijorat banklari xalqaro bank me‘yorlariga muvofiq sinditsiyalashtirilgan kreditlarni amaliyotga keng tadbiiq qilish, jumladan, xorijiy bank kapitalini jalb etish yo‘li bilan investitsiya dasturlarini amalga oshirishda faol ishtirok etmogda. Albatta, bunday chora-tadbirlar xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish xususiyatlarini va amaliyotini chuqur tadbiiq etishni talab etadi.

Umuman olganda, xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish investitsiya jarayonining tarkibiiy qismi hisoblanadi hamda investitsiya resurslari hosil qilinishi natijasiga tayanadi va yuz beradi. O‘z navbatida, u investitsiyalashdan ko‘zlangan maqsadga bevosita bog‘lanadi. Zero, ko‘zlangan maqsadga erishish ishtiiyoqi investorni kapital to‘plab, so‘ng uni shu maqsad yo‘lida safarbar etishga undaydi.

Zotan, maqsad muayyan natijaga qaratilar ekan, natija ham o‘z navbatida, muayyan maqsadlarni keltirib chiqaradi va tegishlicha, investitsiya jarayonini aks ettiruvchi ketma-ketlikni hosil qiladi. Investitsiyalarning bu tarzda harakatlanishi investitsiya faoliyati orqali yuz beradi. Shunday ekan, investitsiya faoliyatining hamda moliyalashtirishning mohiyatini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya faoliyatida loyihaviiy moliyalashtirish – investitsiya loyihalarini kreditlashning bir turi bo‘lib, kreditor loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq risklarni qisman yoki to‘liq o‘z zimmasiga oladi. Agar banklarning oddiiy kredit operatsiyalarida, eng avvalo, qarzdorning kreditga layoqatini o‘rganishga, uning moliyaviiy va iqtisodiiy holatini, shuningdek, garov sifatida foydalanadigan mol-mulklarini baholashga asosiiy ahamiyat berilsa, loyihaviiy moliyalashtirishda loyihaviiy tahlilga e‘tibor qaratiladi.

Loyihaviiy moliyalashtirishning boshqa moliyalashtirish turlaridan asosiiy farqi shundaki, bunda kreditni qaytarishning manbai bo‘lib, loyihani amalga oshirish natijasida olingan daromad (foйда) hisoblanadi.

Tijorat yoki investitsiya kreditlarida kreditning qaytarish manbasi bo‘lib, qarzdorning umumiiy faoliyatidan olgan daromadi bo‘lishi ham mumkin. Loyihani amalga oshirish orqali ko‘rilgan qo‘shimcha daromad kreditni qaytarishning asosiiy manbai bo‘lib hisoblanadi.

Loyihaviiy moliyalashtirish orqali moliyalashtirilgan loyihalar, asosan, iqtisodiiyotning quyidagi tarmoq va sektorlarida ishtirok etishi mumkin:

telekommunikatsiya;


transport;

foydali qazilmalarni qazish;

energetika;

qayta ishlovchi va boshqa ayrim tarmoqlarda.

Loyihaviiy moliyalashtirishning boshqa moliyalashtirish turlaridan prinsiiipial jihatdan farq qiluvchi xususiyati uning tamoyillarida ifoda etiladi. Buni quyidagi 1-rasm orqali tasvirlaymiz:



1-rasm. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tamoyillari⁵

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun turli xil vositalardan foydalanadi. An'anaviy moliyalashtirish usullari va bank kreditlari bilan bir qatorda, investitsiyalarni moliyalashtirishning boshqa zamonaviy usullari ham keng qo'llanilmoqda.

Investitsiyalarni moliyalashtirishda qatnashish imkoniyatiga ega bo'lgan ishtirokchilarning, turli mablag' egalarining loyihani amalga oshirishdagi vazifalarini bilish loyihaga mablag'larni samarali birlashtirishga ko'mak beruvchi va yuqori natijalarga eltuvchi muhim omil hisoblanadi.

Avvalambor, investitsiyalarni moliyalashtirishning asosi bo'lib mustaqil va maqsadlari aniq belgilangan loyihalar hisoblanadi. Loyiha natijasi bo'yicha olingan sof pul oqimining miqdori shunday rejalashtirilishi lozimki, kelgusida ko'zda tutilmagan xarajatlarni ham hisobga olish imkoniyati bo'lishi zarur. Bir vaqtning o'zida loyiha ko'p sonli loyiha ishtirokchilarining talabi va manfaatlarini

⁵ Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasida muallif tomonidan mustaqil tuzilidi

qondirishi ham zarur. Loyiha risklarini uning ishtirokchilari o'rtasida mos taqsimlash imkoniyati mavjud bo'lishi ko'zda tutilishi kerak.

1-jadval

Xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayoni ishtirokchilari va ularning roli⁶

Kutilayotgan ishtirokchilar	Loyihani amalga oshirishdagi roli
Loyiha homiylari	Loyiha natijalari bilan bevosita qiziquvchi kompaniyalar va jismoniy shaxslar. Ular loyihani amalga oshirishga ko'maklashadi, turli masalalarni kelishishadi, tegishli ruxsatnomalar olishadi va aksariyat holatlarda loyiha kompaniyasining ta'sischilari hisoblanadi
Yetkazib beruvchi va pudratchilar	Shartnoma bo'yicha majburiyatni zimmasiga olgan kompaniya tomonidan loyiha uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarni yetkazib beradi
Xaridorlar	Aksariyat loyihalarda mahsulot ma'lum davrda ochiq bozorlarga olib chiqilmaydi. Bunday hollarda loyiha kompaniyasi alohida xaridor yoki ularning guruhi bilan muayyan miqdordagi mahsulotni sotib olish bo'yicha oldindan uzoq muddatli shartnomalar tuzishadi
Loyiha amalga oshirilayotgan mamlakat hukumati	Zaruriy ruxsat beruvchi hujjatlarni berish, xaridlarni amalga oshirish, loyihada aksiyador, homiy sifatida ishtirok yetish, muayyan kafolatlar taqdim etish
Loyiha boshqaruvchisi	Loyihaviy moliyalashtirish bo'yicha bitimlarning tayanch bo'g'ini - loyihaning amalga oshirilishiga javob beruvchi menejerlar komandasi
Kreditorlar	Loyiha kompaniyasiga resurslarni kelishilgan muddatga va oldindan kelishilgan shartlar asosida qarzga taqdim etuvchi tuzilmalar.
Konsultant va maslahatchilar	Loyihani amalga oshirishning turli aspektlarida moslashuvchanlikni ta'minlaydigan maslahatlar beruvchi ixtisoslashtirilgan kompaniyalar va jismoniy shaxslar

Dissertatsiyaning **“Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish usullari amaldagi holatining tahlili (“O'z kimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati misolida)”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini amaliyotining tahlili, xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya instrumentlaridan foydalanish holatining tahlili, xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullariga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili amalga oshirilgan.

⁶ Федотова М., Никонова И., Лысова Н. Проектное финансирование и анализ. – М.: «Юрайт», 2016. – С. 12.

Iqtisodiyotdagi investitsiyalar hajmining yildan-yilga sezilarli ravishda o'sib borishi muqarrar ravishda milliy ishlab chiqarish hajmining o'sishi orqali o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatishga imkon bermoqda. Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini rivojlantirishga berilgan ye'tibor va qo'llab-quvvatlash natijasida yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi va investitsiyalar miqdori o'sish sur'atlariga ega bo'ldi. Jumladan, 2019-2023 yillar oralig'ida investitsiyalar hajmi mutlaq o'sish sur'atlariga ega bo'ldi. Mazkur yillar davrida YaIM 1,58 martaga, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar esa 1,53 martaga ortgan (1-jadval).

1-jadval

Investitsiyalarning iqtisodiyot taraqqiyotidagi rolini belgilovchi ko'rsatkichlar dinamikasi⁷

Ko'rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Yalpi ichki mahsulot, mlrd.so'mda	511838,1	580203,0	734632,9	766956,7	809906,3
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd.so'mda	189924,3	210195,4	244963,3	266654,4	289876,8
Qurilish ishlari, mlrd.so'mda	68854,4	37548,4	45802,7	49876,7	52876,1
Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSh. dollari)	42177,8	36256	42072	45110	47408
Eksport, (mln. AQSh. dollari)	17901,7	15102	16611	17987	18976
Import, (mln. AQSh. dollari)	24276,1	21154	25461	27123	28432
Saldo, (mln. AQSh. dollari)	-6374,4	-6052	-8850	-9136	-9456

Mamlakatimizda faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirishga xalqaro va xorijlik ekspertlar va mutaxassislarning munosabatlari va bergan baholari ham davlatimizning iqtisodiy islohotlarni to'g'ri yo'lda va samarali amalga oshirayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2020 yilda asosiy kapitalga yo'naltirilgan jami investitsiyalar hajmi 210195,4 million AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 289876,8 million AQSh dollarini tashkil etgan, bu esa ularning hajmi 2023 yilda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning hajmi 1,37 barobarga oshganligidan dalolat beradi.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurdagi statistika agentligining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan (<https://stat.uz/uz/2-uncategorised/6692-makroko-rsatkichlar2>).

**Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari,
million AQSh dollari hisobida⁸**

Ko‘rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2023 yilda 2020 yilga nisbatan o‘sishi	
					(+,-)	%
Asosiy kapitalga investitsiyalar	210195,4	244963,3	266654,4	289876,8	79681,4	137,9
<i>shu jumladan:</i>						
Markazlashgan investitsiyalar:	49876,2	54675,1	57123,2	61987,1	12110,9	124,3
budjet mablag‘lari	14897,1	18765,1	19321,1	19843,1	4946,0	133,2
Davlat maqsadli jamg‘armalari	x	x	x	x	x	x
Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi	x	x	x	x	x	x
Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg‘armasi	26,1	54,2	61,1	67,9	41,8	260,2
Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	1234,1	1967,1	2156,1	2314,8	1080,7	187,6
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	6734,1	8287,1	8402,2	8675,9	1941,8	128,8
O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi kreditlar	25437,1	32456,1	36761,3	39876,9	14331,9	156,8
Markazlashmagan investitsiyalar:	160319,2	190288,2	209531,2	227889,7	67570,5	142,1
korxonalar mablag‘i	43231,0	45342,3	46767,6	47878,6	46476,0	110,8
aholi mablag‘i	14567,2	18092,1	19786,2	21123,8	6556,6	145,0
to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	52432,1	59875,3	64985,1	69217,2	16785,1	132,0
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	22134,0	27890,0	31879,0	34234,0	12100,0	154,7

O‘zbekiston iqtisodiyot tarmoqlariga jalb etilgan investitsiyalar tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 2020 yilda 74566,1 million AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib 103451,2 million AQSh dollariga yetgan, bu esa ularning hajmi 2023 yilda 2020 yildagiga nisbatan 1,39 barobarga oshgan.

⁸O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi 2023-2025 yillarga Fiskal Strategiya. – T.: 2022. -93 bet

O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, 2020 yilda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan jami investitsiyalar hajmi 210195,4 million AQSh dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib 289876,8 million AQSh dollarini tashkil etgan, bu esa ularning hajmi 2023 yilda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning hajmi 1,37 barobarga oshganligidan dalolat beradi.

3-jadval

Respublikamizda amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalari⁹

№	Yirik investitsiya loyihalari ishga tushirilgan vaqti	Ishga tushirilgan yirik investitsiya loyihalari soni	Ishga tushirilgan yirik investitsiya loyihalari hajmi, AQSh doll.
1.	2015 yil	158 ta	7,4.
2.	2016 yil	164 ta	5,0
3.	2017 yil	161 ta	2,4
4.	2018 yil	353 ta	9,8
5.	2019 yil	179 ta	20,5
6.	2020 yil	43	13,9
7.	2021 yil	236	28,9
8.	2022 yil	262	38,8
9.	2023 yil	287	49,5

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, respublikamizda amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalari o‘shish tendensiyasi bir tekis rivojlanmagan. Jumladan, 2015 yilda ishga tushirilgan yirik investitsiya loyihalari soni 158 tani tashkil etib, yirik investitsiya loyihalari hajmi 7,4 mlrd. AQSh dollarini, 2017 yilda esa 161 ta ishga tushirilgan yirik investitsiya loyihalari asosida 2,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Zero, 2015 yilda 2017 yilga nisbatan 3 ta yirik loyiha ishga tushirilgan. Shuningdek, 2018 yilda jami 353 ta loyiha ishga tushirilib, 9,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2019 yilda 179 ta yirik loyihadan 20,5 mlrd. AQSh dollarini, 2020 yilda 43 ta yirik loyihadan 13,9 mlrd. AQSh dollarini, 2021 yilda 236 ta yirik loyihadan 28,9 mlrd. AQSh dollarini, 2022 yilda 262 ta yirik loyihadan 38,8 mlrd. AQSh dollarini, 2023 yilda 287 ta yirik loyihadan 49,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yil yakunlari bo‘yicha ma’ruza materiallaridan foydalanilgan holda tayyorlandi.

Venchur fondini yangi ishlanmalarga mablag' kiritishga tayyor turgan yagona investor deb aytish mumkin. Bunday ko'rinisdagi kredit mablag'lariga ehtiyoj asosan endi ish boshlayotgan tadbirkor, olim, tadqiqotchi, injener va kashfiyotchilarda yuzaga kelib, ular o'ziga xos, antiqa g'oyalarni va istiqbolli ishlanmalarni mustaqil ravishda amalga oshirishni maqsad qilib qo'yishadi.

Bugungi kunda 4 ta investitsiya kompaniyasi, 1 ta venchur fondi va 1 ta boshqaruv kompaniyasi tashkil etildi¹⁰.

Shuningdek, mamlakat makroqitisodiy ko'rsatkichlarida bandlik darajasi bir foizga ortishi bir yildan keyin milliy iqtisodiyotda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdorining 1,71 foizga ortishiga olib keladi hamda moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibining bir foizga ortishi bir yildan keyin asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdorining 0,63 foizga ortishiga olib keladi. Mazkur ekonometrik model milliy iqtisodiyotda investitsiya amaliyotlarining rivojlanishi aholi bandlik darajasi va moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar xajmining bir yildan keyin ijobiy iqtisodiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

O'zbekistonda keyingi yillarda islom moliyasi instrumentlaridan foydalanishga qiziqish ortib borayotgani sezilsa-da, investitsiya faoliyatini islom moliyasi instrumentlaridan foydalanish joriy etilmagan. Ushbu instrumentlardan foydalanish bo'yicha respublikamizda 2019 yil 24 yanvarda PQ-4127-son "O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" hamda 2019 yil 5 martdagi PQ-4224-son "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi fondlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish choralari to'g'risida"gi Qarorlar qabul qilindi.

Respublikamizda investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirilganda, aholining qo'lida turgan bo'sh pul mablag'lari iqtisodiyotda faol harakatlanishi, maqsadli investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun sarflanishi mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining buzilishi, jumladan, pul aylanish tezligining pasayishi hisobiga pul massasining ortishi va buning natijasi o'laroq inflatsiya darajasining oshishi kabi iqtisodiy inqirozga yetaklovchi omillarning oldi olinishiga sabab bo'ladi.

An'anaviy banklar ham O'zbekistonda islom moliya muassasalari tashkil qilish, bank tizimida halol va shaffof raqobat yuzaga kelishi, natijada mamlakatga sarmoyalar oqimi o'sishi va diversifikatsiyasiga olib kelishi haqida o'z fikrlarini bildirganlar.

O'zbekiston Tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini tashkil etishning SWOT tahlil qilindi. Bunda, tijorat banklarida islomiy xizmatlarni yo'lga qo'yishga oid kuchli va ojiz tomonlar, imkoniyat va xatarlar o'rganib chiqilgan (4-jadval).

¹⁰<https://mininnovat.uz/> интернет сайти маълумотлари асосида тайёрланди

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini tashkil etishning SWOT tahlili¹¹

Kuchli tomonlari	Imkoniyatlar
<p>1.O‘zbekiston iqtisodiyotini moliyalashtirish uchun ITB guruhidan qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish.</p> <p>2.Jahon amaliyotida islomiy banklar barqaror rivojlanishi va moliyaviy iqtisodiy inqirozga uchramasligi.</p> <p>3.O‘zbekiston Respublikasi Xukumati tomonidan islom moliya instrumentlaridan foydalanishning qo‘llab-quvvatlanishi.</p> <p>4.Katta miqdordagi jamg‘armalarni jalb qilish mumkin (musulmon tadbirkorlar sonini ko‘p ekanligi) va shu bilan chakana va korporativ bank mahsulotlari orqali banklarning depozit bazasini oshirish mumkin.</p> <p>5.Xizmatlarning sifati an’anaviy bank xizmatlaridan kam bo‘lmaydi. Bu bir xil bozorda o‘rnatilgan banklar (foizlar asosida) uchun raqobatni kuchaytiradi.</p>	<p>1.Islom moliya instrumentlarini muvaffaqiyatli joriy etayotgan dunyoviy davlat sifatida milliy iqtisodiyotimizning obro‘si ko‘tarilishi.</p> <p>2.Arab va Osiyo mamlakatlaridan investitsion mablag‘larni jalb qilish va mahalliy iqtisodiyotga yo‘naltirish</p> <p>3.Islom bozori, ya’ni Islomiy ipoteka, Islom sug‘urtasi, yangi investitsiya loyihalari o‘sishi bilan yangi bozorlar paydo bo‘ladi;</p> <p>4.Islomiy moliyalashtirish tamoyillari ijtimoiy tengsizlikni pasaytirishga yordam beradi, ijtimoiy adolatni o‘rnatadi;</p> <p>5.Muqobil bank xizmatlari paydo bo‘lishi evaziga aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati kengayadi.</p> <p>6.Tijorat banklarida islomiy darchalar ochilishi raqobatni kuchaytiradi va musulmonlarga keng imkoniyat yaratadi</p>
Kuchsiz tomonlari	Xatarlar
<p>1. Milliy iqtisodiyotimizning islomiy bank xizmatlarini yo‘lga qo‘yishda qonuniy huquqiy bazani mavjud emasligi.</p> <p>2. Islomiy bank xizmatlarida faoliyat ko‘rsatuvchi mutaxassislarning yetishmasligi;</p> <p>3. Aholi va tadbirkorlarning islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish xizmatlari to‘g‘risida moliyaviy savodxonlikka ega emasligi.</p> <p>4. Aholining yangi moliyaviy xizmatlarga ishonchsizligi.</p> <p>5. Islomiy bank xizmatlarida soliqqa tortiladigan baza bo‘yicha muammolar mavjudligi.</p> <p>6. Islomiy banklar kapitalining ulushi kamligi va yirik kreditlar ajratmasligi.</p>	<p>1.Diniy xurofot mamlakatda islombank faoliyati o‘shishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.</p> <p>2.Islomofobiya. Islomiy bank xizmatlari terrorizm va ekstremizm bilan aloqadorligi to‘g‘risidagi turli yanglish qarashlarni mavjudligi.</p> <p>3. An’anaviy banklar bilan kuchli raqobatning mavjudligi.</p> <p>4. Islomiy tamoyillarni ayrimlarini amalda chetlab o‘tish va butun tizimga nisbatan ishonchsizlikni kelib chiqishi.</p> <p>5. Yirik transmilliy firmalar, sarmoyaviy banklar tomonidan ushbu tizim qo‘llab quvvatlanmayotganligi.</p> <p>6. An’anaviy moliyaviy xizmatlarni taklif etuvchi o‘zaro sug‘urtalash jamiyatlari va mikromoliyaviy tashkilotlar tomonidan raqobatning kelib chiqishi.</p>

Shuningdek, mamlakat makroqitisodiy ko‘rsatkichlarida bandlik darajasi bir foizga ortishi bir yildan keyin milliy iqtisodiyotda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan

¹¹ Иқтисодий адабиётларни ўрганиш натижасида муаллиф томонидан мустақил тузилди

investitsiyalar miqdorining 1,71 foizga ortishiga olib keladi hamda moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibining bir foizga ortishi bir yildan keyin asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdorining 0,63 foizga ortishiga olib keladi. Mazkur ekonometrik model milliy iqtisodiyotda investitsiya amaliyotlarining rivojlanishi aholi bandlik darajasi va moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar xajmining bir yildan keyin ijobiy iqtisodiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

